

## TIL TA'LIMIDA ETIMOLOGIYA MASALALARI

*Erbutayeva Shalola Utkirovna*

*Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida  
o'qituvchisi.*

*Mamilova Sabina Isoq qizi*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*[sabinaisoqovna@gmail.com](mailto:sabinaisoqovna@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tili morfemik tizimidagi tarixiy o'zgarishlar va ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida so'zning morfemik strukturasi vaqt o'tishi bilan qanday transformatsiyaga uchrashi to'rtta asosiy hodisa birlashish, soddalashish, yaxlitlanish va tublashish misolida ochib berilgan. Maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir til hodisasi nazariy ta'riflanib, so'zlarning etimologik ma'nolari bilan qiyoslanadi. Ilmiy tahlil uchun uyqu, yulduz va pichoq so'zlari tanlab olingan bo'lib, bu so'zlar o'z tarixiy rivojlanish yo'lida birlashish – bir nechta morfemaning qo'shilishi, soddalashish – morfemik chegaraning xiralashishi, yaxlitlanish – fonetik o'zgarishlar natijasida so'z va qo'shimcha orasidagi chegaraning yo'qolishi, va tublashish – so'zning mustaqil yasalma sifatida emas, balki yaxlit leksema sifatida idrok etilishi bosqichlarini to'liq namoyon etadi. Foydalanilgan manbalar orasida E.V. Sevortyan, Sh. Rahmatullayev, G'. Abdurahmonov asarlari muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** *Morfemika, etimologiya, morfemik struktura, birikish, soddalashish, yaxlitlanish, tublashish.*

## ВОПРОСЫ ЭТИМОЛОГИИ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Эрбутаева Шалола Уткировна*

*преподаватель кафедры узбекского языка и литературы*

*факультета языков Самаркандского государственного педагогического  
института*

***Мамилова Сабина Исок кизи***

*студентка 2 курса направления «Узбекский язык и литература»*

**Аннотация.** *В данной статье анализируются исторические изменения в морфемной системе узбекского языка и причины их возникновения. В ходе исследования трансформация морфемной структуры слова во времени раскрывается на примере четырёх основных процессов: слияния, упрощения, интеграции и опрощения. Особенность статьи заключается в том, что каждое языковое явление теоретически обосновывается и сопоставляется с этимологическими значениями слов. В качестве материала для научного анализа выбраны слова *iuqi*, *uilduz* и *richoq*, которые в процессе своего исторического развития наглядно демонстрируют этапы: слияния — объединения нескольких морфем, упрощения — размывания морфемных границ, интеграции — утраты границ между основой и аффиксами в результате фонетических изменений, а также опрощения — восприятия слова как целостной лексемы. В числе использованных источников важную научную основу составили труды Э.В. Севортяна, Ш. Рахматуллаева и Г'. Абдурахманова.*

**Ключевые слова:** *морфемика, этимология, морфемная структура, слияние, упрощение, интеграция, опрощение.*

## **ISSUES OF ETYMOLOGY IN LANGUAGE EDUCATION**

***Erbutayeva Shalola Utkirovna***

*Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature*

*Faculty of Languages, Samarkand State Pedagogical Institute*

***Mamilova Sabina Isoq qizi***

*2nd-year student in Uzbek Language and Literature*

**Abstract.** *This article analyzes historical changes in the morphemic system of the Uzbek language and the reasons for their emergence. The study reveals how the morphemic structure of words transforms over time through four main processes: fusion, simplification, integration, and lexicalization. The novelty of the article lies in the fact that each linguistic phenomenon is theoretically defined and compared with the etymological meanings of words. For scientific analysis, the words uyqu (sleep), yulduz (star), and pichoq (knife) were selected, as they clearly demonstrate in their historical development the stages of fusion—the combination of several morphemes, simplification—the blurring of morphemic boundaries, integration—the loss of boundaries between the stem and affixes due to phonetic changes, and lexicalization—the perception of the word as a complete lexical unit rather than a derived form. The works of E.V. Sevortyan, Sh. Rahmatullaev, and G'. Abdurahmonov served as important scientific sources for the study.*

**Keywords:** *morphemics, etymology, morphemic structure, fusion, simplification, integration, lexicalization.*

**Kirish.** Morfemika-soʻzning nomustaqil tarkibiy qismi haqidagi taʼlimot. Maʼlumki, oʻzbek tilida, flektiv tillardagidan oʻlaroq, oʻzakdan boshqa qismlari esa undan ayriqcha qoʻllanmaydi va maʼno anglatmaydi. Shuning uchun ular *morfema* deyiladi. Masalan, (*paxtakorlarga*) soʻzi (*paxta*), (*-kor*), (*-lar*), (*-ga*) qismlaridan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy qism bu soʻz doirasida oʻziga xos elementlar va semantik mavqega ega. Ular lisonda ana shunday ajralgan holda oʻz “xonacha”larida guruh-guruh boʻlib yashaydi. **Etimologiya** – tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasi. Etimologiya soʻzi asli yunoncha *etymon* va *logos* soʻzlaridan tarkib topgan; etimon soʻzi “chin, asl mohiyat” maʼnosini, *logos* soʻzi esa “taʼlim” maʼnosini anglatadi; shunga koʻra etimologiya sohasida soʻzlarning asl shakli va maʼnosini aniqlash boʻyicha izlanishlar olib boriladi.

Til taraqqiyoti natijasida soʻzning semantik, fonetik strukturasi boʻlgani kabi, morfemik tarkibida ham jiddiy oʻzgarish yuz beradi. Ularning toʻrtta koʻrinishi bor va ularni quyidagi jadvallar asosida yoritilib beriladi:

1-jadval

<b>Uyqu</b> – tirik organizmda fiziologik sokinlik holati.M:Ko‘zdan <i>uyqu</i> ketdi.	
1.So‘z qo‘shimcha holiga kelishi,murakkab qo‘shimchalar bir-biriga qo‘shilib ketishi, ya’ni <b>birlashishi</b> mumkin:	Bu ot qadimgi turkiy tildagi “fiziologik sokinlik holatida bo‘l” ma’nosini anglatgan <b>uyu</b> – fe’lidan <b>-qu</b> qo‘shimchasi bilan yasalgan. Ya’ni <b>uyu+qu=uyuqu</b> :[2.385] E.V.Sevortianning “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati” (Umumiy turkiy va turkiylararo unli asoslar) kitobida <b>uyu</b> so‘zi haqida quyidagi fikrlari keltirilgan: “ <b>uyu</b> so‘zi “son”so‘zining o‘zak ildizidan -da affikisi yordamida hosil qilingan hosila fe’l sifatida talqin qilish mumkin, buni G.Ramstedt va yana K.Broclemann ancha oldin taklif qilgan edi.Biroq -iu-variantlari fe’l yasovchi affiks sifatida qayd etilmaydi.Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida “uz” (uyqu) so‘zi quyidagi birikmada uchraydi: “U endi o‘z uyqusidan uyg‘ondi” shaklida.Shunday qilib, uyu mos ravishda <b>uy+u+y</b> shaklida;Uyu ning eski va keng tarqalgan hosilasi affiks yordamida yasalgan ot: uyuk shaklida”. [3.579]
2.So‘z va qo‘shimcha orasidagi aloqa <b>soddalashishi</b> mumkin:	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu so‘zni qadimgi <b>uyqu</b> shaklida yozish saqlangan, lekin talaffuzda so‘z oxiridagi <b>u</b> unlisi <b>i</b> unlisiga almashadi: <b>uyqu&gt;uyqi</b> .[2.385]
3.So‘z va qo‘shimcha birlashib, <b>yaxlitlanishi</b> mumkin:	<b>Uyqu</b> so‘zining yaxlitlanishi soddalashish bilan bir xil tarzda bo‘lgan.Ya’ni <b>uyu+qu=uyuqu</b> qolipi vaqt o‘tishi bilan nutqqa moslanib, <b>uyu</b> fe’lidagi ikkinchi <b>u</b> tovushi tushib qolgan va <b>uyqu</b> holatiga kelgan:[2.385]

<p>4. Soʻz va qoʻshimcha birlashib, soʻz <b>tublashishi</b> mumkin:</p>	<p><b>Uyqu</b> soʻzi yuqoridagi uch bosqichdan oʻtgandan soʻng, u <b>tublashgan</b>. “Oʻzbek tilining morfem lugʻati” kitobida ham <b>uyqu</b> soʻzi hech qanday asos va qoʻshimchalarga ajratilmagan; [2.385]</p> <p>E.V. Sevortianning “Turkiy tillarning etimologik lugʻati” (Umumiy turkiy va turkiylararo unli asoslar) kitobida <b>uyqu</b> soʻziga quyidagi taʼriflar berilgan: “Boshlangʻich boʻlgan shakllar anlavtik unlining ishorasi natijasidir: uyuku-vuku. Bu shakllarning barchasi “uyqu” maʼnosini bildiradi va qoʻshimcha ravishda: oʻzbek tilida “qish uyqusi”, chuvala tilida, T. Zenkerda “dremota”, L.Z. Budagov “spanye”, ozarbayjonda “ChO-vision”, Kazda. dialekt. uyqu holati”. Yana bir hosil uyuq boʻlib, u affiks yordamida hosil boʻladi; lekin bu hosila koʻp qoʻllanilmagan” [3.581]</p>
---	--

Xulosa qilib aytganda, **uyqu** soʻzi til taraqqiyoti natijasida oʻzgarishlarga uchragan va hozirgi kundagi holatiga kelgan. M: “Tongotar *uyqusi* qanchalik shirin boʻlishini kechasi bilan mijja qoqmagan odam biladi” [4.128]

## 2-jadval

<p><b>Yulduz</b> – “kechasi osmonda nur sochuvchi nuqta boʻlib koʻrinadigan koinot jismi” M: Osmondagi <i>yulduzlarni</i> shoda durlarga oʻxshatish mumkin.</p>	
<p>1. Soʻz qoʻshimcha holiga kelishi, murakkab qoʻshimchalar bir-biriga qoʻshilib ketishi, yaʼni <b>birlashishi</b> mumkin:</p>	<p>Bu ot qadimgi turkiy tilda “nurlanishni (yaltirashni) ifodalovchi <b>yalt, yult</b> tasvir soʻzidan <b>ы</b> qoʻshimchasining <b>-u</b> shakli bilan yasalgan feʼlga <b>-z</b> qoʻshimchasini qoʻshib yasalgan. Yaʼni <b>yult+u+z</b> boʻlib birlashgan.</p>
<p>2. Soʻz va qoʻshimcha orasidagi aloqa <b>soddalashishi</b> mumkin:</p>	<p>Qoʻshimcha qoʻshilgandan keyin soʻz va qoʻshimcha orasidagi aloqa soddalashib, <b>t</b></p>

	undoshi <b>d</b> undoshiga almashgan: <b>yult&gt;yuld+ u+ z</b> shaklida bo‘lib.
3.So‘z va qo‘shimcha o‘rtasidagi aloqa birlashib, <b>yaxlitlanishi</b> mumkin:	<b>Yalt,yult</b> tasvir so‘zlarga ( <b>yult + u = yultu</b> ) + <b>z =yultuz&gt; yulduz</b> ; shakliga kelib,yaxlitlangan.
4. So‘z va qo‘shimcha birlashib, so‘z <b>tublashishi</b> mumkin:	<b>Yulduz</b> so‘zi yuqoridagi uchta bosqichdan o‘tib, <b>tublashgan</b> . “O‘zbek tilining morfem lug‘ati” kitobida ham yulduz so‘z hech qanday asos va qo‘shimchaga ajratilmagan.

Xulosa qilib aytganda, **yulduz** so‘zi til taraqqiyoti natijasida o‘zgarishlarga uchragan va hozirgi kundagi holatiga kelgan.M: “Osmon birdan qorayib, *yulduzlar* yorqin-yorqin porlaydi”[5.150]

### 3-jadval

<b>Pichoq</b> – kesishga xizmat qiladigan asbob.M: “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, yomon gap bilan <i>pichoq</i> qinidan chiqadi”.
---

1.So‘z qo‘shimcha holiga kelishi,murakkab qo‘shimchalar bir-biriga qo‘shilib ketishi, ya’ni <b>birlashishi</b> mumkin:	Bu ot qadimgi turkiy manbalarda <b>bichak,бычак</b> shakllarida keltirilgan. Shularga ko‘ra bu so‘zning tarkibi ikki xil talqin qilinadi:1)Qadimgi turkiy tildagi “o‘tkir,kesuvchi asbob” ma’nosini anglatgan <b>bi</b> otidan kichraytirish ma’nosini ifodalovchi <b>-chak</b> qo‘shimchasi bilan yasalgan.Ya’ni so‘z bilan qo‘shimcha birlashgan: <b>bi+chak=bichak</b> ; 2)Qadimgi turkiy tildagi “kes” ma’nosini anglatgan <b>быч</b> fe’lidan <b>-(a)q</b> qo‘shimchasi bilan yasalgan: <b>быч+ aq+бычаq</b> ;
2.So‘z va qo‘shimcha orasidagi aloqa <b>soddalashishi</b> mumkin:	So‘z bilan qo‘shimcha qo‘shilgandan keyin, so‘z boshlanishidagi <b>b</b> undoshi <b>p</b> undoshiga,o‘zbek

	tilida <b>рычаq</b> so'zi oxiridagi <b>q</b> undoshi ta'siri bilan <b>a</b> unlisi <b>a</b> unlisiga almashgan.Ya'ni vaqt o'tishi bilan so'z soddalashgan.
3.So'z va qo'shimcha o'rtasidagi aloqa birlashib,yaxlitlanishi mumkin:	So'z va qo'shimcha orasidagi aloqa birlashib ya'ni <b>ы</b> unlisining qattqlik belgisi yuqolgan: <b>быч + аq = бычаq &gt; рычаq &gt; pичаq</b> shakliga kelgan va yaxlitlangan.  <b>Pichoq</b> so'zi yuqoridagi uchta bosqichdan o'tib, <b>tublashgan</b> va bugungi kundagi shakliga kelgan.
4.So'z va qo'shimcha birlashib, so'z <b>tublashishi</b> mumkin:	“O'zbek tilining morfem lug'ati” kitobida <b>pichoq</b> so'zini <b>pich-oq</b> shaklida asos va qo'shimchaga ajratilgan [8.193]

Xulosa qilib aytganda, G'.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostidagi “Devonu lug'otit turk” indeks-lug'ati kitobida **pichoq** so'zi **bichak** shaklida kelgan[6.71].Demak, **pichoq** so'zi til taraqqiyoti natijasida o'zgarishlarga uchragan va hozirgi kundagi holatiga kelgan. “Kecha kuyov yuborgan novvosni so'ygan qassob *pichog'ini* qinidan chiqardi” [7.27]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. O'quv qo'llanma. –T., “Fan va texnologiya”, 2009
2. Shavkat Rahmatullayev. “O'zbek tilining etimolgik lug'ati” – Toshkent:Universiteti,2000.
3. Э.В Севортян “Этимологический словарь тюркских языков” (Общетюркские и межтюркские основы на гласные) Издательство “наука” Москва 1974.579-581-б.
4. Hoshimov O'tkir.Ikki eshik orasi: Roman. – T.: “Sharq”, 2012.128-b.

5. O'tkir Hoshimov. Shamol esaveradi – Toshkent.: “Meriyus”,2017. 150-b.
6. G'.Abdurahmonov va S.Mutallibov “Devoni lug‘ati at-turk” indeks-lug‘ati.Fan. – Toshkent: 1967.71-b.
7. Said Ahmad Ufq.Trilogiya –Toshkent.: Adabiyot va sanat nashriyoti,1976.27-b.
8. A.G‘ulomov, A.N. Tixonov, R.Qo‘ng‘urov “O‘zbek tili morfem lug‘ati” “O‘qituvchi” nashriyoti, 1977.193-b.